**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириў министриниң**
**БУЙРЫҒЫ**

**Улыўма орта билим бериў мектеплеринде санитариялық қағыйдалары ҳәм гигиеналық нормалары менен белгиленген талаплардан келип шығып, Халық билимлендириў министрлиги басқарыў системасындағы ўазыйпаларды белгилеў ҳаққында**

Өзбекстан Республикасы Президентиниң 2020-жыл 12-ноябрьдеги “Медициналық профилактикалық нәтийжелилигин жәнеде асырыў арқалы жәмийет саламатлығын тәмийинлеўге қаратылған қосымша ис-илажлар ҳаққында”ғы ПҚ-4891-санлы қарарына муўапық, Халық билимлендириў министрлигиниң 2021-жыл 18-январьдағы “Улыўма орта билим бериў мектеплеринде санитариялық қағыйдалары ҳәм гигиеналық нормалары менен белгиленген талапларынан келип шығып, Халық билимлендириў министрлиги басқарыў системасында ўазыйпаларды белгилеў ҳаққында”ғы 10-санлы буйрығын орынланыўын тәмийинлеў мақсетинде

**БУЙЫРАМАН:**

1. Өзбекстан Республикасы Президентиниң 2020-жыл 12-ноябрьдеги “Медициналық профилактикалық нәтийжелилигин жәнеде асырыў арқалы жәмийет саламатлығын тәмийинлеўге байланыслы қосымша ис-илажлар ҳаққында”ғы ПҚ-4891-санлы қарарына муўапық, Халық билимлендириў министрлигиниң 2021-жыл 18-январьдағы “Улыўма орта билим бериў мектеплеринде санитариялық қағыйдалары ҳәм гигиеналық нормалары менен белгиленген талаплардан келип шығып, Халық билимлендириў министрлиги басқарыў системасында ўазыйпаларды белгилеў ҳаққында”ғы 10-санлы буйрығы басшылыққа алынсын ҳам орынланыўы тәмийинленсин.

2.Улыўма орта билим бериў мектеплеринде санитариялық қағыйдалары ҳәм гигиеналық нормалары менен белгиленген талаплары бойынша Халық билимлендириў министрлиги басқарыў системасындағы ўазыйпалары қосымшаға муўапық тастыйықлансын.

3. Министр орынбасары (Ш.Таджимуратов), Саламат аўқатландырыўды шөлкемлестириў ҳәм медициналық хызметин муўапықластырыў бөлими (С.Хабипов)не барлық улыўма орта билим бериў мектеплеринде саламат турмыс тәризин шөлкемлестириўге көмеклесиўши волентёрлар (атап айтқанда напақадағы шыпакерлер, оқытыўшылыр, зиялылар ҳәм басқалар) жәмийетлерин шөлкемлестириў илажларын көрсин.

4. Район(қала)лық Халық билимлендириў бөлимлери баслықларына ҳәмде Республикалық бойсыныўдағы билимлендириў мәкемелери директорларына:

Улыўма орта билим бериў мектеплеринде санитариялық қағыйдалары ҳәм гигиеналық нормалары менен белгиленген талаплардан келип шығып, бөлимниң анық ўазыйпаларын ислеп шығыў ҳәм тастыйықлаў;

оқыўшылар арасында саламат турмыс тәризин беккемлеў, сондай-ақ туўры аўқатланыўды шөлкемлестириў, дене шынықтырыў, санитариялық-гигиеналық қағыйдаларына әмел етиў ҳәм раўажландырыўға қаратылған ис-илажларын ислеп шығыў ҳәм де әмелге асырыўды тәмийинлеў;

оқыў ханаларының жақтылық дәрежеси, ҳаўа алмасыўы ҳәм оқыўшылар ушын басқа зәрүр шараятлар жаратыў ўазыйпасы жүклетилсин.

5. Усы буйрықтың орынланыўын қадағалаў министр орынбасары Ш.Таджимуратовқа жүкленсин.

**Министр** **Р.Реимов**

2021-жыл 20 -январь

17 -санлы буйрық

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sanitariya qoidalari va gigiyenik normativlar bilan belgilangan talablardan kelib chiqib, Xalq ta'limi vazirligi boshqaruv tizimining vazifalarini belgilash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 12-noyabrdagi PQ-4891-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi PQ-4891-son qarori (keyingi o'rinlarda Qaror deb yuritiladi) vazir o'rinbosarlari, vazirlikning departamenti, boshqarma va bo'limlari, hududiy boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar direktorlari tomonidan rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sanitariya qoidalari va gigiyenik normativlar bilan belgilangan talablar bo'yicha Xalq ta'limi vazirligi boshqaruv tizimining vazifalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Maktabdan tashqari ta'lim, sport va turizmni tashkil etish boshqarmasi (M.Karabayev) barcha umumta'lim maktablarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga ko'maklashuvchi volontyorlar (shu jumladan nafaqadagi shifokorlar, o'qituvchilar, ziyolilar va boshqalar) jamiyatlarini tashkil qilish choralarini ko'rsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalariga:

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sanitariya qoidalari va gigiyenik normativlar bilan belgilangan talablardan kelib chiqib, xalq ta'limi bo'limlarining aniq vazifalarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

o'quvchilar orasida sog'lom turmush tarzi, shu jumladan sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta'minlash;

o'quv xonalarining yoritilganlik darajasi, havo almashinuvi va o'quvchilar uchun boshqa zarur optimal sharoitlar yaratish vazifalari yuklatilsin.

5. Vazirlik devonxonasi (X.Raximbayeva) Qaror va mazkur buyruqni bir kun muddatda xalq ta'limi boshqaruv idoralariga yetkazilishini ta'minlasin.

6. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosarlari D.Kenjayev va I.Djurayev zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir** **Sh.Shermatov**

Toshkent sh.,
2021-yil 18-yanvardagi,
10-son

QR XALIQ BILIMLENDIRIW MINISTRLIGI
KIRIS № 4
"19" 01 2021 jil

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirining
2021-yil 18 yanvardagi
10 -sonli buyrug'iga
ILOVA

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sanitariya qoidalari va gigiyenik normativlar bilan belgilangan talablar bo'yicha Xalq ta'limi vazirligi boshqaruv tizimining vazifalari**

**Xalq ta'limi vazirligi, respublika miqyosida:**

1. Sanitariya qoidalari va gigiyenik normativlar bilan belgilangan talablardan kelib chiqib Xalq ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya, sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish va tibbiy xizmat ko'rsatishni muvofiqlashtirish ishlarini tashkil etish.

2. Umumta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya jarayonini sanitariya qoidalari va gigiyenik normativlarga mos tarzda tashkil etishga doir takliflarni hamda sohaga taalluqli masalalar bo'yicha normativ hujjatlar loyihalarini ko'rib chiqish.

3. Umumta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya jarayonini sanitariya qoidalari va gigiyenik normativlarga mos tarzda tashkil etish ishlarini nazorat qilish.

4. Sanitariya qoidalari va gigiyenik normativlar bilan belgilangan talablardan kelib chiqib, Xalq ta'limi muassasalarida ta'lim tarbiya, sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish va tibbiy xizmat ko'rsatishni muvofiqlashtirish bo'yicha erishilgan yutuqlar, ilg'or ish tajribalarni o'rganish, ommalashtirish va rag'batlantirish ishlarini tashkillashtirish.

5. Xalq ta'limi boshqaruv organlari va vazirlik tasarrufidagi barcha turdagi ta'lim muassasalarida sanitariya qoidalari va gigiyenik normativlarga rioya etilishi, sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish va tibbiy xizmat ko'rsatishni muvofiqlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishda amaliy metodik yordam ko'rsatish.

6. Ta'lim muassasalarida tegishli SanQvaMga rioya etilishiga yetarli sharoit yaratish, sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish va tibbiy xizmat ko'rsatishni muvofiqlashtirish ishlarida moddiy-texnik ta'minoti va kadrlar bilan ta'minlanishi belgilangan me'yorlarga muvofiqligini nazorat qiladi va tahlil qiladi, aniqlangan ehtiyojlarni qoplash masalasi yuzasidan asoslangan takliflar berish.

7. Xalq ta'limi tizimidagi muassasalarda SanQvaMga rioya etilishi bo'yicha fuqarolarni qabul qiladi, tushgan xat, ariza va shikoyatlarni o'rganadi, mavjud muammolarni hal etish yuzasidan tegishli choralar ko'rish.

8. Xalq ta'limi tizimidagi muassasalarda har tomonlama xavfsiz va qulay muhit yaratish bo'yicha mutasaddiligidagi respublika tashkilotlari, Xalq ta'limi hududiy boshqaruv organlari hamda boshqa davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirish.

**Viloyat miqyosida:**

1. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning sog‘lig‘ini mustahkamlash, ularning to‘laqonli sog‘lom ovqatlanishini tashkil etish, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash orqali o‘quv jarayoni samarali tashkil etilishini nazorat qilish.

2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari oshxonalarida ovqatlanishni tashkil etishda belgilangan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos shart-sharoitlar yaratilishini nazorat qilish.

3. O‘quvchilarining har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, ularda tana vaznining me’yordan ortishi, organizmdagi yod tanqisligi va moddalar almashinuvi jarayonining buzilishi, maktab oshxonalarida Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan ta’qiqlangan oziq-ovqat mahsulotlari bilan savdo qilinishi, bolalar salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan taomlar tayyorlanishi hamda sotilishini oldini olish yuzasidan tegishli hamkor tashkilotlar bilan chora-tadbirlar belgilash.

4. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari hamda sanitariya-gigiyena tadbirlari va epidemiyaga qarshi tadbirlarga rioya etmaslik holatlarini bartaraf etish choralarini ko‘rish.

**Tuman (shahar) miqyosida:**

1. O‘quvchi, o‘smirlar orasida sog‘lom turmush tarzini mustahkamlashning ta’sirchan choralarini ko‘rish, sog‘lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini keng tatbiq etish, o‘smirlarning tibbiy madaniyatini oshirish.

2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini sanitar-gigiyenik talablar asosida tashkil etish yuzasidan zarur tadbirlarni belgilash, yaratilgan sharoitlar, suv ta’minoti, kanalizatsiya tarmog‘ining holati, binoga kirish yo‘llarini talab darajasida tashkil etilganligi hamda undan samarali foydalanilayotganligini o‘rganish va bajarilishini nazoratga olish.

3. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilar orasida tibbiy ko‘rikning sog‘lom hayot kechirishdagi ahamiyati bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish, badantarbiya mashg‘ulotlarini kundalik turmush tarziga aylantirish, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilinishini ta’minlash, sog‘lom va to‘g‘ri ovqatlanishni targ‘ib etish borasida ishlarni tashkil etish.

4. O‘quvchilar orasida sog‘lom turmush tarzi, sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

5. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quv qurollari, darsliklar va maktab jihozlarining amaldagi gigiyenik normativlarga muvofiqligini nazorat qilish.

6. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining sog‘liqlarini nazorat qilib borish uchun tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishi monitoringini yuritish.